



UDK:32:305.42

Dilnozaxon KATTAKHANOVA,

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari, PhD

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: dskattakhanova@gmail.com

Siyosiy fanlar doktori, professor K.Kuranbayev taqrizi asosida

GENDER TENGLIGI SOHASIDAGI XALQARO-HUQUQIY ASOSLAR VA MAJBURIYATLAR

Аннотация

Mazkur maqolada gender tengligi tushunchasi, uning huquqiy asoslari, asosiy xalqaro shartnomalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari, shuningdek davlatlarning xalqaro va milliy darajadagi majburiyatlarini tahlil qilinadi. Shu orqali xalqaro huquq tizimida gender tengligi prinsipining shakllanishi, rivojlanishi hamda uning davlat siyosati va jamiyat amaliyotidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Gender tengligi, ayollar va erkaklar huquqlari, kamsitishni bartaraf etish, Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG–2030), inson huquqlari, qonuniy kafolatlar, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, gender strategiyasi.

INTERNATIONAL LEGAL FOUNDATIONS AND OBLIGATIONS IN THE FIELD OF GENDER EQUALITY

Annotation

This article analyses the concept of gender equality, its legal foundations, key international treaties and their implementation mechanisms, as well as the obligations of states at the international and national levels. In this context, the formation and development of the principle of gender equality within the international legal system are examined, along with its role and significance in public policy and social practice.

Key words: Gender equality, women’s and men’s rights, elimination of discrimination, Sustainable Development Goals (SDG 2030), human rights, legal guarantees, women’s socio-political participation, gender strategy.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И ОБЯЗАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА

Аннотация

В статье анализируется понятие гендерного равенства, его правовые основы, ключевые международные договоры и механизмы их реализации, а также взаимосвязь международных обязательств и национальных механизмов их имплементации. Рассматриваются процессы формирования и эволюции принципа гендерного равенства в системе международного права, а также его значение и роль в государственной политике и общественной практике.

Ключевые слова: Гендерное равенство, права женщин и мужчин, ликвидация дискриминации, Цели устойчивого развития (SDG–2030), права человека, правовые гарантии, социально-политическая активность женщин, гендерная стратегия.

Kirish. Jamiyatda gender tengligi masalasi inson huquqlari, demokratiya, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish uchun fundamental ahamiyat kasb etadi. Inson huquqlarining universalligi, tabiiyligi va ajralmasligi prinsiplariga ko‘ra, har bir inson – jinsi, irqi, tili, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar – teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, gender tengligi masalasi faqat ijtimoiy yoki madaniy yo‘nalish emas, balki xalqaro huquqning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Gender tengligi – bu ayollar va erkaklar hayotning barcha sohalarida teng huquqlar va imkoniyatlarga ega bo‘lishi, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy faoliyatlarida teng ishtirokini ta‘minlashdir. Masalan, ta‘lim, mehnat bozorida ishtirok, siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish hamda resurslardan foydalanishda jins bo‘yicha farqlar bo‘lmasligi kerak.

Shu bilan birga, gender tengligi xalqaro huquqiy majburiyat sifatida davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlar BMTning qator xalqaro hujjatlariga qo‘shilgan holda, jins asosidagi kamsitishlarni bartaraf etish, ayollar va erkaklar uchun huquqiy hamda amaliy tenglikni ta‘minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risidagi konvensiya, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlaridagi 5-maqsad shular

jumlasidandir. Ushbu xalqaro hujjatlar gender tengligini ta‘minlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi.

Gender tengligi nafaqat huquqiy yoki siyosiy masala, balki iqtisodiy va ma‘naviy rivojlanishning ham asosiy shartidir. Jahon banki, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tahlillariga ko‘ra, gender tengligi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish, ta‘lim darajasi va jamiyatning umumiy farovonligi ham yuqori bo‘ladi. Demak, ayollar va erkaklarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi – jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishning kafolatidir.

Shunday ekan, gender tengligi mavzusi nafaqat nazariy yoki ijtimoiy nuqtayi nazardan, balki xalqaro huquqiy jihatdan ham chuqur tahlil etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masaladir. Bu yo‘nalishda xalqaro huquqiy hujjatlar, shartnomalar va davlatlarning amaliy faoliyati, ularning milliy qonunchilikka tatbiq etilishi hamda amalga oshirish mexanizmlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Gender tenglik masalasi mamlakatimiz qonunchiligida tobora o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lib bormoqda. Gender tenglikni jahon standartlariga mos ravishda shakllantirish va uning amaliy ijrosini ta‘minlash maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. So‘nggi yillarda xotin-qizlarning barcha sohalaridagi ishtiroki ulushini oshirish, ularni erkaklar bilan teng lavozim va mansablarga tayinlash borasida sezilarli

Mirziyoyevning 2020-yil 23-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasidagi nutqida ham o'z ifodasini topdi.

Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasidagi nutqida xalqaro hamjamiyat e'tiborini mintaqaviy va global miqyosdagi dolzarb masalalarga qaratib, O'zbekistonning ushbu masalalar yuzasidan aniq va izchil pozitsiyasini bayon etdi. Nutqda mamlakatni siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Ushbu yo'nalishlar orasida gender tengligini ta'minlash masalasi alohida o'rin egalladi. Xususan, Prezidentimiz gender tenglik siyosati davlat uchun strategik ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlab, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki izchil ortib borayotganini, shuningdek, yangi chaqiriq parlamentda ayol deputatlar soni ikki baravarga oshganini qayd etdi.

Mazkur yondashuv mamlakatimizda xotin-qizlarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, 2019-yil 22-noyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmonga muvofiq xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning oila va jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, bandligini ta'minlash hamda ayollar tadbirkorligining turli shakllarini rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilandi.

Bugungi kunda O'zbekiston xotin-qizlar masalalariga oid xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarishga intilmoqda. Xususan, "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyaning ishtirokchisi sifatida uning normalarini milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu yo'nalishda 2019-yil sentabr oyida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarda ayollarni jinsi bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni taqiqlashga alohida urg'u berilgan.

Mazkur qonunlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Qonunlarning asosiy maqsadi xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalarida hamda boshqa sohalarida tazyiq va zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, jabrlangan shaxslarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlashdan iboratdir [3].

Mazkur qonunlarda "gender" tushunchasi ham belgilangan bo'lib, unga ko'ra, gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatini ifodalaydi.

BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir muhim hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 3-moddasida: "Mazkur Paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktida nazarda tutilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan teng foydalanishni ta'minlash majburiyatini oladilar", deb belgilangan. Ushbu norma "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida mustahkamlangan bo'lib, uning muhim huquqiy asoslaridan biridir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir", deb belgilanganligi ham mazkur kafolatning muhim huquqiy asosidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha maxsus komissiya tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari gender tenglik sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etish, shuningdek xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Bundan tashqari, Komissiya tavsiyasiga binoan BMT Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi ko'magida tazyiq va zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarga tekzor va sifatli yordam ko'rsatishga qaratilgan standart operatsion chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan hujjat ishlab chiqildi.

Bugungi kunda gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, oilada va jamiyatda, ayniqsa xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida ijtimoiy munosabatlar va qonunchilik tizimida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun 32-moddadan iborat bo'lib, uning 29-moddasida qonun hujjatlarini buzgan shaxslarning javobgarligi, 30-moddasida esa Vazirlar Mahkamasi va boshqa manfaatdor tashkilotlarning ushbu Qonun ijrosini ta'minlash, uni aholiga tushuntirish majburiyatlarini belgilangan [4].

Yangilanayotgan O'zbekiston islohotlari inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash bilan bir qatorda jamiyatda xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning huquq va imkoniyatlarini ustuvor qadriyat sifatida himoya qilishga qaratilgan. Natijada ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida izchil amalga oshirilmoqda. So'nggi uch yil davomida gender tenglikni ta'minlashning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash yo'lida muhim chora-tadbirlar ko'rildi. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qariyb 20 ta normativ-huquqiy hujjat, jumladan 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori, 4 ta Prezident farmoni va 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.

Shuningdek, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida UNICEF, UNFPA, BMT, OTB, USAID, YXHT, YTTB kabi xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama takliflar asosida yillik qo'shma rejalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va jamiyatda muvaffaqiyatga erishgan ayollarning ilg'or tajribasini ommalashtirish maqsadida www.genkom.uz axborot portali ishga tushirildi [5].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, gender tengligi davlat siyosati va jamiyat hayotida nafaqat huquqiy talab sifatida, balki strategik ustuvor yo'nalish sifatida ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Uning samarali amalga oshirilishi davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar, iqtisodiy subyektlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan faol ishtirok etishni, shuningdek mustahkam huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Gender tengligini ta'minlash orqali davlat nafaqat o'zining huquqiy majburiyatlarini bajaradi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va barqaror rivojlanishni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon ayollar va erkaklarning jamiyat hayotida teng ishtirokini ta'minlab, ijtimoiy stereotiplar hamda genderga oid kamsitishlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, gender tengligi jamiyatning intellektual, ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish, inson kapitali va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Demak, u nafaqat huquqiy majburiyat yoki deklarativ maqsad, balki ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy hamda amaliy sharti sifatida davlat va jamiyat hayotida izchil rivojlanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda gender tengligiga erishish jarayonida xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash, shu orqali oilani kuchaytirish, yuqori intellektual salohiyatga ega yosh avlodni voyaga yetkazish hamda jamiyat barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva F.Sh. Yangi O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning huquqiy asoslari. Respublika yosh olimlari kengashining ma'ruzalar to'plami. Toshkent, 2021 y.
2. Inson huquqlari (mualliflar jamoasi). Toshkent, 2012, 202–215-b.
3. Xudoyberdiyeva G. Gender tengligi: xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar qanday ta'minlanayapti? — <http://hudud24.uz/>
4. Muxitdinova F. Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tengligining huquqiy asoslari. — <https://yuz.uz/news/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikning-huquqiy-asoslari>
5. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashda qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda? Xalq so'zi gazetasi. — <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-gender-tenglikni-taminlashda-qandaj-ozgarishlar-roj-bermoqda>